

Surxondaryolik o'quvchilarga ko'krak nishoni topshirildi



Surxondaryolik o'quvchilarga ko'krak nishoni topshirildi

Termiz shahrida "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakatining surxondaryolik a'zolariga ko'krak nishoni va guvohnomalar tantanali ravishda topshirildi.

San'at saroyi hududidagi "Alpomish" haykali poyida viloyat markazi va tumanlarida joylashgan 6 ta maktabdan 6 nafar harakat rahbari va 120 nafar a'zosi taqdirlash marosimida jam bo'ldi.

Unda Mudofaa vazirligi, Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug ofitserlari, Qurolli Kuchlar faxriylari, Termiz harbiy prokurori, viloyat hamda Termiz shahar va tuman hokimliklari, shahar Ma'naviyat va ma'rifat bo'linmasi, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari ishtirok etdi.

Tadbirda soʻzga chiqqanlar nishon egalarini samimiy tabriklab, mamlakatimizda yoshlar uchun yaratilayotgan imtiyoz va imkoniyatlarga javoban, oʻquvchilar chuqur bilim egallab, Vatanga tayanch boʻlishiga ishonch bildirdi.

Koʻzlarida shijoat yongan ertamiz egalari koʻkrak nishonlarini qabul qilib olar ekan, Oʻzbekiston Respublikasiga sadoqat bilan xizmat qilishga tantanali ravishda vaʼda berdi.

Tadbir Oʻzbekiston mudofaasiga koʻmaklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti Surxondaryo viloyati boshqarmasining sport texnikalari va koʻrgazmasiga ulanib ketdi. Tadbir yakunida harbiy xizmatchilar tomonidan tashkil etilgan qoʻl jangi hamda faxriy qoʻrov shaxsiy tarkibining sahna chiqishlari, madaniyat markazi xonandalarining Vatanimiz adh etuvchi kuy-qoʻshiqlari barchaga koʻtarinki karrfiyat bagʻishladi.








Image not found or type unknown

